

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA O'ZGARTIRISH VA  
QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
"IQTISODIYOT TARMOQLARIDA FUQARO AVIATSIYASINING UCHUVCHISIZ UCHISH  
QURILMALARIDAN MAQSADLI VA SAMARALI FOYDALANISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RISIDA" 2018-YIL 29-MARTDAGI PQ-3639-SON QARORI)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalaridan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 29-martdagi PQ-3639-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Z.T. Mirzayev hamda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisi A.X. Abdullayev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 15-avgust,  
663-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-  
avgustdagi 663-son qaroriga  
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-iyuldagi 186-qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2014-y., 28-son, 344-modda) ilova 1.2-bandining "Ishlar narxi" ustunidagi "baravari" so'zi "foizi" so'zi bilan almashtirilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan sanksiyasiz foydalanishda ogohlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 26-noyabrdagi 322-son qarorining (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2014-y., 48-son, 570-modda) rus tilidagi matnining 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"1. Ustanovit, chto:

na territorii Respubliki Uzbekistan zapreshayetsya vvoz, realizatsiya i ispolzovaniye bespilotnix letatelnix apparatov (kodi TN VED 8802 20 000 1, 8802 20 000 2 i 8802 20 000 8), za isklyucheniye sluchayev vvoza i ispolzovaniya bespilotnix letatelnix apparatov Gosudarstvennim unitarnim predpriyatiyem "Geoinnovatsionniy tsentr" pri Gosudarstvennom komitete Respubliki Uzbekistan po zemelnim resursam, geodezii, kartografii i gosudarstvennomu kadastru i predusmotrennix otdelnimi resheniyami Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan;

vremenniy vvoz i ispolzovaniye na territorii Respubliki Uzbekistan bespilotnix letatelnix apparatov dlya podgotovki foto i videomaterialov o turistskom potentsiale respubliki razreshayetsya, v tom chisle zarubejnim tvorcheskim gruppam, po xodataystvam Gosudarstvennogo komiteta Respubliki Uzbekistan po razvitiyu turizma, Ministerstva kulturi Respubliki Uzbekistan i Natsionalnogo agentstva "Uzbekkino", s predostavleniyem v Ministerstvo oboroni Respubliki Uzbekistan i Gosudarstvennyu inspeksiyu Respubliki Uzbekistan po nadzoru za bezopasnostyu poletov informatsii o litsax, vvozyayux i ispolzuyuyux bespilotnie letatelnie apparati i mestax syemok;

vladelsi bespilotnix letatelnix apparatov nesut otvetstvennost za soblyudeniye zakonodatelstva reguliruyushchego poryadok ix ispolzovaniya na territorii Respubliki Uzbekistan".

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 529-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017y., 30-son, 733-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning 11-bandi "d" kichik bandiga quyidagi mazmundagi xatboshilar qo'shilsin:

“uchuvchisiz uchish qurilmalarining funksional va texnik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;

iqtisodiyot tarmoqlarida uchuvchisiz uchish qurilmalarini qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi;

uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish jarayonida olingan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va saqlash ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi;

uchuvchisiz uchish qurilmalari uchun konstruktiv elementlar ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich mahalliyashtirishda va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda eng zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tajribaning joriy etilishini ta'minlaydi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini boshqarish sohasida mutaxassislarni tayyorlashga ko'maklashadi;

operatori bo'lmagan uchuvchisiz uchish qurilmalarini faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsatnomasiga ega bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga iqtisodiyot tarmoqlaridagi boshqa tashkilotlar uchun operator bilan ijaraga beradi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini ta'mirlash va texnikaviy qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatadi”.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2018-y., 09/18/663/1765-son)*